



Received: July 25, 2023
Accepted: September 15, 2023
Available online: September 25, 2023

Hikmatullo Urazbayev

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Gulandom Bakiyeva

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

OLIY TA'LIMDAN KEYINGI BOSQICHDA TAHSIL OLISHNING O'ZIGA XOS MASHAQQATLARI VA IZLANUVCHILARNING ILMIY RAHBARLARIDAN KUTILMALARI: DIAGNOSTIK TADQIQ

ANNOTATSIYA

Oliy ta'limdan keyingi bosqichda tahsil olish yuqori darajadagi akademik tadqiqotchilik ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi. Ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanish, turli sinovlardan o'tish, dissertatsiya ishini himoya qilish jarayoni doktorant-izlanuvchining turli bosqichlardan, ruhiy tushkunlik va g'alaba hisini tuyish bilan kechadi. Doktorantura ta'limida uchrovchi moliyaviy qiyinchiliklar bo'lsa doktorantlar faoliyatiga ba'zan salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday vaziyatlarda doktorant, izlanuvchilarning ilmiy rahbarlaridan qo'llab-quvvatlov olishi va qiyinchiliklarni yengib o'tishi tanlangan soha bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi.

Mazkur tadqiqotda oliy ta'limdan keyingi ta'limda tahsil oluvchi doktorant va izlanuvchilar duch keladigan qiyinchiliklar va muammolar hamda ularning o'z ilmiy rahbarlaridan kutilmalari tadqiq qilinadi. Tadqiqot davomida onlayn so'rovnomadan foydalanilgan bo'lib, so'rovda mamlakatimizda faoliyat yurituvchi turli OTMlari va institutlaridan jami 150 nafar tayanch doktorant, doktorant va mustaqil izlanuvchilar hamda 21 nafar ilmiy rahbar va maslahatchilar

Khikmatullo Urazbaev

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)
Westminster International University in Tashkent
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: kurazbaev@wiut.uz

Gulandom Bakieva

Professor, Doctor of Science in
Philological Sciences (DSc)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: philologymatters@uzswlu.uz

CHALLENGES OF STUDYING AT A DOCTORATE LEVEL AND DOCTORAL CANDIDATES' EXPECTATIONS FROM THEIR SUPERVISORS: A DIAGNOSTIC RESEARCH

ABSTRACT

Studying at the doctoral level is a challenging process that involves rigorous academic and research training. It requires producing original research, passing comprehensive exams, and defending a thesis. Throughout this journey, doctoral scholars often face setbacks and periods of doubt, in addition to financial pressures from inadequate academic stipends. Seeking help from advisors and fellows can alleviate these challenges and help students progress towards becoming independent experts in their respective fields.

This study aimed to investigate the main difficulties that doctoral candidates face during their studies in Uzbekistan, as well as their expectations from their supervisors regarding support. The research was carried out through an online survey, which was completed by 150 doctoral candidates and 21 supervisors across various disciplines and institutions in Uzbekistan. The survey consisted of structured questions about the challenges experienced by the candidates and their level of agreement with statements about the expected roles of their supervisors. Descriptive statistical methods were used to analyze the survey results, calculating the mean value, mode, and standard deviation for each question's responses.

ishtirok etdi. So‘rov o‘z ichiga doktorantlar duch keladigan potensial muammolar hamda ularning ilmiy rahbarlaridan kutilmalari bo‘yicha savollarni qamrab oldi. So‘rov natijalari tavsiflovchi statistik metodlardan foydalangan holda matematik-statistik tahlilga tortildi.

So‘rov natijalariga ko‘ra doktorantura bosqichida tahsil oluvchi shaxslarda eng ko‘p uchrovchi muammolar bu moliyaviy qiyinchiliklar, asabiylashish, ish va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi kabilardir. Doktorantlar o‘z ilmiy rahbarlaridan ularga ruhiy emotsional qo‘llab-quvvatlov hamda tadqiqot ishlari bo‘yicha sifatli qayta aloqa berishlarini kutib qoladi. Biroq tadqiqot natijalariga ko‘ra, doktorantlar o‘z ilmiy rahbarlariga o‘zlarini qiynayotgan shaxsiy muammolari bilan murojaat qilishi mumkin yoki mumkin emasligi bo‘yicha yakdil qarashga ega emas. Xuddi shu tarzda ilmiy rahbar va maslahatchilar ham o‘z shogirdlariga bu masalalarda ko‘mak berishlari o‘z vazifalari qatoriga kirish yoki kirmasligi bo‘yicha umumiy qarashga ega emas.

Kalit so‘zlar: oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim, tayanch doktorant, ilmiy rahbar, qiyinchiliklar, qo‘llab-quvvatlov, karyera.

The survey results have identified some challenges faced by doctoral candidates, including financial difficulties, nervousness, lack of work-life balance, inadequate academic skills, and time management issues. It was found that candidates expected their supervisors to provide them with frequent guidance, feedback, emotional support, career mentoring, assistance in navigating programs and processes, and advocacy when required. However, the results indicate that doctoral candidates are uncertain about whether to share their personal issues with their supervisors. The same uncertainty was observed in the responses given by supervisors, who also appeared to be unsure about dealing with such requests from doctoral candidates.

The research findings offer valuable insights into areas where supervisors can focus to support doctoral students more effectively and tackle challenges that impede timely completion. Enhancing the supervision process by promoting open communication of expectations and conducting periodic evaluations could help reduce stress levels. Additionally, ensuring that supervisors possess the necessary skills to address the diverse needs of doctoral students could significantly enhance their overall experience.

Key words: doctorate study, doctoral candidate, challenges, supervisor, support, career.

KIRISH

Mamlakatimizda xalq farovonligi, turmush sifati, barqaror iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlaridagi izchil islohotlar ta‘lim sohasidagi islohotlar bilan uzviy olib borilmoqda. Shu bois, 2023-yil 11-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” Strategiyasida ham ta‘lim sohasida 2030-yilgacha erishilishi ko‘zda tutilgan maqsadlar birinchi bosh ustuvor yo‘nalish tarkibida berilishi bejis emas. Zero, xalq turmush tarzining, ijtimoiy-iqtisodiy farovonligining asosini, atrof-muhit muhofazasini tashkil qilish, sud-huquq tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta‘minlash, tinchliksevar tashqi siyosat olib borishning zahirini inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan sifatli ta‘lim tashkil qiladi. Shu o‘rinda ta‘lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan strategik maqsadlarda, xususan, oliy ta‘limdan keyingi ta‘limini ham rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida, “oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish”, “stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura hamda maqsadli doktorantura kvotalari sonini 5 200 taga yetkazish” kabi 2030-yilgacha erishilishi lozim bo‘lgan muhim maqsadlar belgilab qo‘yilgan [O‘zRes PF-158-son Farmoni, 2023]. Bu maqsadlarga erishish bo‘lsa, o‘z navbatida, doktorantura ta‘limini jahon standartlari asosida tashkil etish va rivojlantirish, doktorantura bosqichida

tadqiqotchi-izlanuvchilarning muvaffaqiyatli ta'lim olishlari va ilm-fan bilan mashg'ulligini samarali yo'lga qo'yish borasida ishlar olib borilishini nazarda tutadi.

Doktorantura ta'limining sifatli yo'lga qo'yilishi birinchi galda inson omili bilan bog'liqligi ko'p ilmiy tadqiqotlarda o'z isbotini topgan. Xususan, doktorantura ta'limi va unda doktorant (tadqiqotchi-izlanuvchi) hamda ilmiy rahbar (maslahatchi) munosabatlari ko'plab tadqiqotlar obyekti sifatida xizmat qilgan.

Doktorantura ta'limida ilmiy rahbar (maslahatchi) va tadqiqotchi-izlanuvchi o'rtasida sog'lom, professional munosabatning o'rnatilishi katta ahamiyatga ega va ko'p hollarda aynan ushbu o'zaro munosabatlarning ijobiy yo'lga qo'yilganligi har ikkala tomon uchun ham muvaffaqiyat garovi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ilmiy rahbarlar (maslahatchi) doktorantura ta'limida ilmiy rahbarlar tadqiqotchi izlanuvchilarning ilmiy loyihalarni olib borishi, ilmiy ishini yozishda hamda professional rivojlanishida ko'rsatma, yo'l-yo'riq ko'rsatish, qayta aloqa berish kabi vazifalarni bajarishi barchagama'lum. Shuningdek, ilmiy rahbar doktorantlarga tadqiqot maqsadlarini aniqlashtirish, ilmiy farazlarni shakllantirish, tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqish, tadqiqot natijalarini tahlil va talqin qilish kabilarda maslahatgo'y vazifasini ham bajaradi [Cotterall, 2011]. Ilmiy rahbarlarning (maslahatchilarning) doktorantlarning ilmiy soha bilan yaqindan tanishishi yoki boshqacha aytganda sohaga ijtimoiylashuvida ham muhim rol o'ynaydi [Austin, 2002; Wao & Onwuegbuzie, 2011]. Jumladan, ilmiy rahbarlar (maslahatchilar) doktorantlarga ilmiy ishlarini nashr qilish, konferensiyalar, sohada faoliyat yuritayotgan olimlar va mutaxassislar bilan aloqa o'rnatish, doktorantning kelgusidagi kasbiy faoliyatini rejalashtirish kabi masalalarda ham qimmatli maslahatlarini berishini qayd etish joiz. R.Neyman va J.Rodvell [Neumann & Rodwell, 2009; 63] tomonidan Avstraliya OTMlari kontekstida o'tkazgan tadqiqotlarida doktorantlarning OTMda tahsil olishidan qoniqish hissi asosan ularning o'z ilmiy rahbarlari bilan ijobiy o'zaro munosabatiga bog'liqligi aniqlangan.

Prokrastinatsiya va vaqtni to'g'ri taqsimlay olmaslik doktoranturada tahsil oluvchilar orasida uchrab turuvchi odatiy muammolar va qiyinchiliklar sirasiga kiradi. D.Jayram va D.Kal [Jairam & Kahl, 2012] prokrastinatsiya va vaqtni to'g'ri taqsimlay olmaslik, ya'ni reja grafik asosida tadqiqot ishlarini bajarmaslik va belgilangan muddatlarda bajaralishi lozim bo'lgan topshiriqlarni keyinga qoldirish, tadqiqotchi izlanuvchilarning doktoranturani tugata olmaslik risklarini oshiruvchi omil sanalishini qayd etishgan. Bunday hollarda doktorantlarning belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarishini nazorat qilish, reja grafikda qayd etilgan maqsadlarga belgilangan muddatlarda erishishini kafolatlashda ilmiy rahbarlar (maslahatchilar) asosiy rol o'ynaydi [Cotterall, 2013; Wao & Onwuegbuzie, 2011].

Barcha insonlar qatori doktorantura bosqichida tahsil olayotgan izlanuvchilarda ham ruhiy-emotsional muammolar uchrab turishi turgan gap. Aksar hollarda izlanuvchilar ilmiy ishni oxirigacha yetkazish bilan bog'liq motivatsion muammolar, intellektual zo'riqish, bajarayotgan ishida ma'noni to'liq anglab yetmaslik, o'z ilmiy tadqiqoti natijalarining amaliy ahamiyatini to'laqonli anglamaslik yoki turli shaxsiy sabablarga ko'ra ruhiy qiyinchiliklarni boshdan kechirishlari mumkin. Bunday

hollarda ilmiy rahbarlar doktorant, tadqiqotchi-izlanuvchilarga ruhiy-emotsional qiynchiliklarni yengib o'tishiga yordam berishi, ularni ruhlantirib turishi muhim sanaladi [Austin, 2002; Cotterall, 2013]. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda ilmiy rahbarlar o'z doktorantlariga ilmiy faoliyat etikasi, ish bilan shaxsiy hayot o'rtasida sog'lom muvozanatni saqlay bilish, mustaqil fikrlash va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha namuna bo'lishlari zarurligi qayd etiladi [Gardner, 2007; Wright, 2003].

Akademik muhitga va hamjamiyatga integratsiya qila olmaslik izlanuvchilarning doktoranturani tugata olmasligiga sabab bo'luvchi yana bir muhim omil sanaladi. Ya'ni o'zi biriktirilgan kafedrada, bo'limda o'zini yolg'iz his qilgan va o'zini o'sha kafedra yoki jamoaning a'zosi sifatida his qilmagan tadqiqotchi-izlanuvchilarda doktoranturani tamomlash imkoniyatlari nisbatan pastroq bo'lishi bir nechta tadqiqotlarda o'z isbotini topgan [Ali et al., 2007; Lovitts, 2001]. Bunda ilmiy rahbarlardan doktorantlarni ilmiy tadqiqot muhiti, olamiga olib kiruvchi, ilmiy madaniyat xususiyatlari bilan yaqindan tanishtiruvchi, ularning ijtimoiylashuvini ta'minlovchi funksiyani bajarishlari lozim bo'ladi.

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarda doktorant va izlanuvchilarning doktoranturani muvaffaqiyatli tugatishida ilmiy rahbarlari va maslahatchilarining ham roli tadqiq qilingan bo'lib, tadqiqot natijalariga ko'ra yetarli darajada ustoz-shogird munosabatlarining yo'lga qo'yilmasligi va ilmiy rahbarlar tomonidan yo'l-yo'riq va maslahat berilishining yetarli darajada bo'lmasligi ham doktorantlarning o'qishini tugata olmasligi yoki tashlab ketishiga sabab bo'lishi mumkin [Ampaw & Jaeger, 2011; Bollinger & Halupa, 2012; Gardner, 2007].

Doktoranturada tahsil oluvchi tadqiqotchi izlanuvchilarning jarayonni muvaffaqiyatli tugatishida moliyaviy imkoniyatlari ham muhim o'rin tutadi. Moliyaviy sabablarga ko'ra ko'proq vaqtini ishga sarflaydigan tadqiqotchi izlanuvchilar ilmiy daraja olishgacha yetib bora olmasliklari bir qator ilmiy ishlarda aniqlangan [Bowen & Rudenstine, 2014; Golde, 2000; Nettles & Millett, 2006].

Mamlakatimiz kontekstida doktoranturada tahsil olishga bel bog'lagan tadqiqotchilarning asosiy qismini, barchamizga ma'lumki, asosan katta yoshlilar tashkil qiladi va aksar hollarda ular o'z mustaqil oilaviy hayotini boshlagan, bir yoki ber necha nafar farzandli ota va onalar bo'ladi. Shu bois, tadqiqotchi izlanuvchilar va doktorantlar nazorat qila olmaydigan faktorlardan biri bu shaxsiy va oilaviy masalalar sanaladi. Oilaviy ahvoldagi o'zgarishlar, sog'liq bilan bog'liq muammolar va oilaga taalluqli vazifa va mas'uliyatlar ham ko'p hollarda doktoranturani muvaffaqiyatli tugatishga to'sqinlik qilishi mumkin [Ampaw & Jaeger, 2011; Bowen & Rudenstine, 1992; Golde, 2000; Korthagen, 2004; Lovitts, 2001]. Bunday hollarda doktorantlarning nafaqat ilmiy rahbar, maslahatchilari tomonidan ruhiy-emotsional qo'llab-quvvatlanishiga balki oila a'zolari tomonidan ham qo'llab-quvvatlanishga ehtiyoj sezishadi. G.Gurriga ko'ra, doktorant-izlanuvchilar o'zlariga nisbatan faqatgina tadqiqotchi sifatida emas, balki ularni shaxs sifatida ko'ruvchi hamda turli qiynchiliklarni yengib o'tishda yordam beruvchi ilmiy rahbarlarni qadrlashadi [Gurr, 2001]. K.Pyuxelto boshchiligidagi tadqiqotchilarning qayd etishlaricha [Pyhältö et

al., 2012], doktorantura ta'limiy ruhiy-emotsional qo'llab-quvvatlovning bo'lishi doktorant, izlanuvchilar tomonidan his qilinadigan stress, yolg'izlikka qarshi kurashishga yordam beradi. Aksincha, ruhiy-emotsional qo'llab-quvvatlov bo'lmasa, doktoranturadagi ta'lim izlanuvchilarning farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ilmiy tadqiqot asosan kognitiv faoliyat hisoblanganligi bois ilmiy tadqiqot bilan me'yoridan ortiq shug'ullanish, aqliy zo'riqishning oldini olishda noto'g'ri strategiyalarni qo'llash (yetarlicha hordiq chiqarmaslik, kam uxlash va h.k.) turli mental hamda psixologik mummolarni keltirib chiqarishi mumkin. T.M. Evans [Evans et al., 2018], K.Levek boshchiligidagi tadqiqotchilarning [Levecque et al., 2017] aniqlashlaricha, aqliy zo'riqish, depressiya, stress kabi psixologik muammolar doktorantlar orasida keng tarqalgan muammolardan sanaladi.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar sharhidan ko'rinib turibdiki, ilmiy rahbarlarning (maslahatchi) vazifalari va funksiyalari bo'yicha xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim tizimi kontekstida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Yuqoridagi singari ilmiy tadqiqotlar mamlakatimiz kontekstida o'tkazilmaganligi hamda mamlakatimiz kontekstida doktoranturada tahsil olish davomida tadqiqotchi izlanuvchilar va ularning ilmiy rahbarlari (maslahatchilari) haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlarga ega bo'lish va doktorantura ta'lim bosqichidagi ilmiy rahbarlik faoliyatini yanada takomillashtirishga empirik yondashish maqsadida mazkur tadqiqotga zarurat tug'ildi. Mazkur ilmiy izlanish oldiga quyidagi tadqiqot savollari (TS) qo'yildi:

TS1: Doktorant, tadqiqotchi-izlanuvchilarning doktoranturani muvaffaqiyatli tamomlashiga to'sqinlik qiluvchi potensial qiyinchiliklar qaysilar?

TS2: Doktorant, tadqiqotchi-izlanuvchilar doktoranturada tahsil olish davomida qanday muammolarga duch kelishadi?

TS3: Tadqiqotchi-izlanuvchilar ilmiy rahbarlari bilan o'zaro professional munosabatlaridan kutilmalari nimalarda aks etadi?



TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot ishtirokchilari. Tadqiqotda mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalari, institut va ilmiy tekshirish institutlarida faoliyat yurituvchi tayanch doktorant, doktorant va mustaqil izlanuvchilar ishtirok etdi. Tadqiqotda foydalanilgan so'rovda jami jami 150 (n=150) nafar tayanch doktorant, doktorant va mustaqil izlanuvchilar hamda 21 nafar (n=21) ilmiy rahbar va maslahatchilar ishtirok etdi.

Doktorant va tadqiqotchi izlanuvchilar. So'rovda ishtirok etgan respondentlarning 49% birinchi bosqich, 27 foizini ikkinchi bosqich va 24 foizini uchinchi bosqich izlanuvchilari tashkil qildi (1-rasmga qarang).

Doktorant respondentlarning yoshi bo'yicha taqsimotiga keladigan bo'lsak, respondentlarning aksariyat qismini (34%) 26-30 yosh oralig'idagi, 29% ni 31-35 yosh, 21% ni 36-40 yosh oralig'idagi doktorant va izlanuvchilar tashkil qildi (2-rasmga qarang).

So'rovda qatnashgan doktorant va tadqiqotchi izlanuvchilarning aksariyat qismini (74,2%) ayollar tashkil qilgan bo'lsa, respondentlarning 25,8% erkaklardan iborat bo'ldi (3-rasmga qarang).

1-rasm. Respondentlar tahsil olayotgan bosqichi**2-rasm.** Respondentlarning yosh bo'yicha taqsimoti

Ilmiy rahbar va maslahatchilar. So'rovda ishtirok etgan 21 nafar ilmiy rahbar va maslahatchilarning asosiy qismini (38,1%) 41-45 yosh oralig'idagi ilmiy rahbar va maslahatchilar, 23,8% ini 46-50 yosh oralig'idagi, 9,5% ni 36-40 yosh oralig'idagi va 4,8% 31-35 yosh oralig'idagi ilmiy rahbar va maslahatchilar tashkil qildi.


Ilmiy rahbar va maslahatchilar orasidagi respondentlarning aksar qismini (66,7%) ayollar va qolgan qismini (33,3%) erkaklar tashkil qildi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda so'rov usulidan foydalanildi. Doktorantlar va ilmiy rahbarlar (maslahatchi) uchun maxsus so'rovnoma tuzilib, har ikkala guruh respondentlar uchun mo'ljallangan so'rovnoma to'rt bo'limdan iborat bo'ldi. So'rovnoma Google Forms platformasida tuzilib, 18 mingdan ziyod kuzatuvchisiga ega "Doktorantlar Official" Telegram kanali hamda OTMlarda tashkil qilingan doktorantlar Telegram kanallari orqali tarqatildi.

Doktorantlar uchun tuzilgan so'rovnoma birinchi qismida demografik ma'lumotlar (4ta savol), ikkinchi qismda tadqiqotchi izlanuvchilarning doktoranturani muvaffaqiyatli tugatishiga to'sqinlik qiluvchi faktorlar (3ta savol), uchinchi qismda "Ilmiy rahbar (maslahatchi) va doktorant (tadqiqotchi-izlanuvchi) vazifalari"gi

doir 12ta savol va to‘rtinchi qismda “Ruhiiy-emotsional qo‘llab-quvvatlash”ga doir 8ta savol so‘raldi. Uchinchi va to‘rtinchi qism asosan Likert bo‘yicha 7 darajadagi shkalali javobli savollardan iborat bo‘ldi. Likert bo‘yicha 7 darajadagi shkalali javoblar quyidagicha tuzildi: 1. Umuman qo‘shilmayman; 2. Qisman qo‘shilmayman; 3. Qo‘shilmayman; 4. Qo‘shilaman ham qo‘shilmayman ham; 5. Qo‘shilaman; 6. Qisman qo‘shilaman; 7. To‘liq qo‘shilaman. Mazkur qismlardagi savollar M. Atkins va G. Braun [Atkins & Brown, 2014; 114] tomonidan ishlab chiqilgan “Ilmiy rahbar va doktorant vazifalarining anglashinuvi” so‘rovnomasidan ayrim o‘zgartirishlar kiritgan holda adaptatsiya qilindi.

3-rasm. Respondentlarning jinsi bo‘yicha taqsimoti



Ilmiy rahbar va maslahatchilar uchun tuzilgan so‘rovnoma ham to‘rt qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda demografik ma‘lumotlar, ikkinchi qismda ilmiy rahbarlik tajribasida doktoranturani muvaffaqiyatli tugata olmagan tadqiqotchilar soni va sabablari, uchinchi qismda “Ilmiy rahbar (maslahatchi) va doktorant (tadqiqotchi-izlanuvchi) vazifalari”gi doir (11 ta) savollar va to‘rtinchi qismda “Ruhiiy-emotsional qo‘llab-quvvatlash”ga doir (6 ta) savollar berildi. Shuningdek, ilmiy rahbar va maslahatchilardan doktorantura bosqichida ilmiy rahbarlik faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar variantlaridan iborat savol ham so‘raldi. Bu so‘rovnomada ham uchinchi va to‘rtinchi qism asosan Likert bo‘yicha 7 darajadagi shkalali savollardan iborat bo‘ldi.

So‘rovnoma natijalari MS Excel 2020 dasturi yordamida tahlil qilinib, bunda asosan tavsiflovchi statistik usullardan (so‘rovda berilgan javoblarning o‘rtacha qiymati, moda va standart og‘ishni aniqlash) foydalanildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Doktoranturani muvaffaqiyatli tamomlashga to‘sqinlik qiluvchi potensial qiyinchiliklar.

So‘rovda doktorant va tadqiqotchi izlanuvchilarning oliy ta’limning doktorantura bosqichini muvaffaqiyatli (ilmiy daraja bilan) tamomlashiga to‘sqinlik qiluvchi potensial faktorlar haqida ma‘lumotga ega bo‘lish uchun savollar berildi. Bunda respondentlardan ular tanigan, bilgan doktoranturani ilmiy daraja bilan tamomlay

olmagan hamkasblari, kursdoshlari bor-yo‘qligi so‘raldi. 75 nafar respondent bunday tanishlari borligini qayd etgan bo‘lsa, 75 nafar respondent bunday odamlarni tanimasligini belgilagan. Keyingi savolda yuqorida ta’kidlangan hamkasb, do‘st yoki kursdoshlarining doktoranturani tamomlay olmaganligining sabablariga aniqlik kiritish so‘raldi. So‘rov natijalariga ko‘ra, 74,9% foiz holatda (47 marta tanlangan javob) doktorantlarning moliyaviy qiyinchiliklar sabab doktorlik ilmiy darajasiga ega bo‘la olmagan.

Keyingi eng ko‘p tanlangan javob varianti “Shaxsiy hayotdagi muammolari” javobi bo‘lib, mazkur javob jami 41 marta (54,5%) tanlangan. Keyingi o‘rinlarda “Ilmiy rahbar bilan o‘zaro ijobiy munosabat bo‘lmasligi” (38 marta), “Ilmiy ish bilan shug‘ullanishga yetarli akademik ko‘nikmalarga ega bo‘lmaslik” (32 marta), “Oilaviy ahvoldagi o‘zgarishlar” va “Ish bilan shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi” variantlari teng ravishda 31 martadan tanlangan. Mazkur savolga berilgan javoblarga ko‘ra “Mavzuga oid materiallarni topishdagi qiyinchiliklar” eng kam tanlangan varinat bo‘ldi (1-jadvalga qarang). Shunga qaramay aniq va tabiiy fanlar sohasida ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanayotgan izlanuvchilarga ko‘ra “kerakli asbob-uskunalar hamda tekshirish uchun laboratoriya jihozlari mavjud emasligi, mavjud bo‘lganlarining juda qimmat ekanligi” alohida muammo sifatida qayd etilgan.

1-jadval.

Doktorant va tadqiqotchi izlanuvchilarning doktoranturani muvaffaqiyatli tamomlashga to‘sqinlik qilgan omillar

№	Javoblar	Tanlanish chastotasi	Foizda
1.	Moliyaviy qiyinchiliklar	47	74,9%
2.	Shaxsiy hayotidagi muammolar	41	54,5%
3.	Ilmiy rahbar bilan ijobiy o‘zaro munosabat bo‘lmasligi	38	59,5%
4.	Ilmiy ish bilan shug‘ullanishga yetarli akademik ko‘nikmalarga ega bo‘lmaslik	32	49,6%
5.	Oilaviy ahvoldagi o‘zgarishlar (turmushga chiqish, farzandli bo‘lish va h.k.)	31	42,2%
6.	Ish bilan shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi	31	42,2%
7.	Motivatsiyaning yetishmasligi	26	34,5%
8.	Sog‘liq bilan bog‘liq muammolar	18	24,4%
9.	Karyerasidagi o‘zgarishlar	18	23,4%
10.	Mavzuga oid materiallarni topishdagi qiyinchiliklar	15	26,3%

Doktorant va tadqiqotchi izlanuvchlardan ushbu savolga olingan javoblarni taqqoslash maqsadida xuddi shu savol ilmiy rahbar va maslahatchilardan ham so‘raldi. So‘rovda ishtirok etgan jami 21 nafar ilmiy rahbarlar va maslahatchilarning javoblariga ularning tajribasida o‘rtacha 1,29 nafar doktorant, tadqiqotchi izlanuvchi o‘z ilmiy ishini oxirigacha tugata olmagan va ilmiy darajaga ega bo‘la olmagan. Buning sabablari so‘ralganda ilmiy rahbar va maslahatchilarga ko‘ra doktorantlarning o‘qishni tashlab ketishiga asosiy sabablar doktorantning (tadqiqotchi-izlanuvchi) sog‘ligi bilan bog‘liq muammolarning yuzaga kelishi (14,3%), oilaviy ahvolidagi o‘zgarishlar (14,3%) va ilmiy ish bilan shug‘ullanishga yetarli akademik ko‘nikmalarga ega emasligi (9,5%)

hisoblanadi.

So‘rovnomaning keyingi savoli “Sizning doktoranturada ilmiy ishingizni tugatishga (ilmiy daraja olish) to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan potensial sabablarni ko‘rsating (bir yoki bir nechta sababni ko‘rsatish mumkin)?” tarzda berilib, ushbu savoldan ko‘zlangan maqsad doktorant, tadqiqotchi izlanuvchilarning o‘z ilmiy ishini tugatishiga va ilmiy darajaga ega bo‘lishiga to‘sqinlik qiluvchi ehtimoliy qiyinchiliklar haqida ma’lumot to‘plash bo‘ldi. Ushbu savolga respondentlar tomonidan berilgan javoblar 2-jadvalda umumlashtirilgan (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Doktorant va tadqiqotchi izlanuvchilarning doktoranturani muvaffaqiyatli tamomlashga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan omillar

	Javoblar	Tanlanish chastotasi	Foizda
1.	Moliyaviy qiyinchiliklar	47	70,4%
2.	Shaxsiy hayotidagi muammolar	40	54,8%
3.	Oilaviy ahvoldagi o‘zgarishlar (turushga chiqish, farzandli bo‘lish va h.k.)	41	56,9%
4.	Sog‘liq bilan bog‘liq muammolar	34	44,4%
5.	Ish bilan shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi	33	47,3%
6.	Ilmiy ish bilan shug‘ullanishga yetarli akademik ko‘nikmalarga ega bo‘lmalik	26	40,9%
7.	Mavzuga oid materiallarni topishdagi qiyinchiliklar	26	40,9%
8.	Ilmiy rahbar bilan ijobiy o‘zaro munosabat bo‘lmaligi	19	29,4%
9.	Motivatsiyaning yetishmasligi	17	21,2%
10.	Prokrastinatsiya, vaqtdan unumli foydalanmaslik	14	20,6%
11.	Karyeradagi o‘zgarishlar	9	12,7%
	Boshqa sabablar		
12.	Taqrizchilarning uzoq vaqt ishini o‘qishi sabab	1	1,1%

O‘tkazilgan so‘rovning ushbu natijalari V.G. Bouen, N.L. Rudensteyn [Bowen & Rudenstine, 2014], M.T. Nettls va K.M. Millett [Nettles & Millett, 2006], F.D. Ampav va A.J. Jager [Ampaw & Jaeger, 2012] hamda B.Lovittslarning [Lovitts, 2001] ilmiy xulosa va topilmalariga juda yaqin. Ya’ni mamlakatimiz kontekstida ham doktoranturani tamomlashga to‘sqinlik qiluvchi omillar bu doktorant, tadqiqotchi izlanuvchilarning moliyaviy qiyinchiliklar, shaxsiy hayotidagi muammolar va oilaviy ahvolidagi o‘zgarishlar sanaladi degan xulosaga kelish mumkin. Undan tashqari, doktorant va tadqiqotchi izlanuvchilar orasidagi respondentlarning aksariyatini ayollar tashkil qilishini inobatga oladigan bo‘lsak oilaviy ahvoldagi o‘zgarishlar (turushga chiqish, farzandli bo‘lish va h.k.) kabilar prioritetlarning o‘zgarishiga olib kelgan holda doktoranturadan ketishga sabab bo‘ladi degan xulosa mantiqan to‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Moliyaviy qiyinchiliklar bilan bog‘liq sabab bo‘lsa, o‘z navbatida, katta ehtimol bilan erkak doktorant va tadqiqotchi-izlanuvchilarga xos bo‘lishi mumkin. Zero, madaniyatimiz o‘ziga xosligidan kelib chiqadigan bo‘lsak, erkak kishining odatda oila boshi va oilaning bosh moddiy ta’minotichisi sifatidagi roli doim muhim sanalgan. Bu esa nima uchun doktorantura bosqichida tahsil

oluvchilarning va himoyaga chiquvchilarning aksariyatini ayollar tashkil qilishini ham qisman tushuntirishi mumkin.

Doktorantlar va tadqiqotchi-izlanuvchilar duch keladigan muammolar

Doktorant va tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan so'rovnomaning oxirgi savolida ularning ilmiy ish ustida ishlash davomida uchrab turuvchi muammolar so'raldi. Savolga olingan javoblarga ko'ra, doktorant va tadqiqotchilarda eng ko'p uchrovchi muammo bu ularning oilasiga kam vaqt ajratayotganligi sababli asabiylashishi (73 marta tanlangan; 98,8%) ekanligi aniqlandi. Keyingi o'rinlarda aqliy zo'rqi (55 marta; 72,4%), tadqiqot bilan shug'ullanishga yetarlicha akademik ko'nikmalarga ega emasligi (46 marta; 63,2%) hamda dissertatsiya ishi natijalarini chop etishda moliyaviy qiyinchiliklar (chop etish ishlarining qimmatligi) (46 marta; 63,2%) ekanligi aniqlandi. Shuningdek respondentlar motivatsion muammolarni ta'kidlagan holda mazkur javob variantini 40 marta tanlashgan (46,8%). Ushbu savol bo'yicha qolgan natijalar 3-jadvalda berilgan.

3-jadval.

Ilmiy ish (dissertatsiya) ustida ishlash davomida doktorant va tadqiqotchi-izlanuvchilar duch keladigan muammolar

№	Javoblar	Tanlanish chastotasi	Foizda
1.	Oilamga kam vaqt ajratayotganligim sababli asabiylashishim	73	98,8%
2.	Aqliy zo'rqi	55	72,4%
3.	Tadqiqot bilan shug'ullanishga yetarlicha akademik ko'nikmalarga ega emasligim	46	63,2%
4.	Dissertatsiya ishi natijalarini chop etishda moliyaviy qiyinchiliklar (chop etish ishlarining qimmatligi)	46	63,2%
5.	Motivatsiyamning susayishi	40	46,8%
6.	Dissertatsion tadqiqotim mendan boshqa hech kimga kerak emasdek tuyulishi	33	50,8%
7.	Ilmiy rahbarimning men va mening ishimga kam vaqt ajratishi	30	45,1%
8.	Ilmiy rahbarimning ishim bo'yicha qayta aloqa berishining kechikib ketishi	19	25,6%
9.	Ilmiy rahbarim va mening qarashlarim o'rtasidagi ziddiyatlar	16	23,6%
10.	O'zimni yolg'iz his qilishim	14	20,6%

Jadvalda berilgan natijalar T.M. Evans [Evans et al., 2018] hamda K. Levek [Levecque et al., 2017] boshchiligidagi tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga juda yaqinligini ko'rish mumkin. Ya'ni doktorant va tadqiqotchi izlanuvchilar o'rtasida keng tarqalgan muammolar, ko'rib turganimizdek, asabiylashish va aqliy zo'rqi. Undan tashqari ilgari shu mavzu doirasida amalga oshirilgan va mazkur tadqiqotda aniqlangan natijalar tasdiqlashicha doktorant va tadqiqotchi izlanuvchilarda moliyaviy muammolar ham ko'p uchrab turadi. Mazkur mavzu bo'yicha ilgari o'tkazilgan tadqiqotlardan [Ali et al., 2007; Lovitts, 2001] farqli ravishda tadqiqot respondentlari javoblariga ko'ra o'zini yolg'iz his qilish aksar respondentlar uchun asosiy muammo emas. Buni tadqiqot o'tkazilgan kontekstda asosan mahalliy doktorant va izlanuvchilarning tahsil olishi bilan

tushuntirish mumkin. A.Ali [Ali et al., 2007] va B.Lovitts boshchiligidagi [Lovitts, 2001] olimlarning tadqiqotida o'zini yolg'iz his qilish asosan xorijlik doktorantlarga xos muammo ekanligi qayd etiladi. Dissertatsion tadqiqot natijalarini chop etishdagi moliyaviy qiyinchiliklarning ko'p bora ta'kidlanganligini ham yildan yilga turli ilmiy jurnallarda ilmiy maqolalarni chop ettirishning narxi tobora oshib borayotganligi bilan izohlash mumkin. A.Grossmann va B.Brembs [Grossmann & Brembs, 2021] tomonidan amalga oshirilgan ilmiy nashrlar bozoridagi narxlar tahliliga ko'ra, katta ko'lamda ilmiy maqolalarni nashr qilib bilan shug'ullanuvchi platformalar bitta maqola nashri uchun 200 AQSh dollargacha to'lov talab qilsa, nufuzli xalqaro jurnallarda maqola nashr qilish narxi 1000 AQSh dollarigacha bo'lishi mumkin. Mamlakatimizda oliy ta'limdan keyingi ta'limni isloh qilish jarayonida tayanch doktoranturada tahsil oluvchi shaxslarning oylik stipendiyasi miqdori kichik ilmiy xodim lavozim maoshining bazaviy miqdoriga tenglashtirildi [O'zRes VMQ-304, 2020]. Mazkur qarorga muvofiq 2023-yil avgust oyi holatiga tayanch doktorantlarning stipendiyasi 5.269.460 so'mni, doktorantlarning stipendiyasi 6.732.600 so'mni tashkil qiladi. Shuningdek, Respublikamizning boshqa hududlaridan kelib, poytaxt OTMlarida oliy ta'limdan keyingi ta'limda faoliyat yurituvchi shaxslarda moliyaviy qiyinchiliklar ko'proq kuzatilishi mumkin.

Ilmiy rahbarlar (maslahatchi) hamda doktorant, tadqiqotchi izlanuvchilarning ilmiy rahbarlaridan kutilmalari

So'rovnomaning 3-qismi doktorant, izlanuvchilarning ruhiy-emotsional qo'llab-quvvatlov borasida o'z ilmiy rahbar va maslahatchilaridan kutilmalari bo'yicha fikrlarini o'rganishni nazarda tutdi. Ushbu qismdagi savollar bo'yicha olingan javoblar 3 va 4-jadvallarda umumlashtirilgan. 3- va 4-jadvallarda berilgan statistik ma'lumotlarni tushunish va talqin qilish uchun quyidagilarni aniqlashtirib olish muhim.

Turli darajadagi shkala bo'yicha respondentlar javobining umumiy tendensiyasi o'rtacha ko'rsatkich (mean value) orqali ifodalanadi. Masalan, mazkur tadqiqotda qo'llanilgan so'rovnomada berilgan ma'lum bir savolga Likert bo'yicha 7 darajali shkalali javobning o'rtacha ko'rsatkichi 5.20 bo'lsa, mazkur savolga berilgan javoblarning asosiy qismi "7-To'liq qo'shilaman" javobiga tomon tendensiyaga egaligini anglatadi [Cohen et al., 2002; Li et al., 2018].

Moda respondentlar tomonidan eng ko'p marotaba tanlangan javob variantini bildiradi. Ya'ni mazkur tadqiqotda foydalanilgan so'rovnomada foydalanilgan Likert shkalasi bo'yicha berilgan darajalaridan (1-Umuman qo'shilmayman; 2-Qisman qo'shilmayman; 3-Qo'shilmayman; 4-Qo'shilaman ham qo'shilmayman ham; 5-Qo'shilaman; 6-Qisman qo'shilaman; 7-To'liq qo'shilaman) qaysi biri respondentlar tomonidan eng ko'p marotaba tanlanganligini ko'rsatadi.

Standart og'ish (Standard Deviation, SO) so'rov orqali jamlangan javoblarning o'rtacha ko'rsatkichga qanchalik yaqin joylashganini (klasterlashgan) anglatib, pastroq standart og'ish olingan javoblarning o'rtacha ko'rsatkich atrofida klasterlashganini, yuqoriroq standart og'ish ko'rsatkichi bo'lsa javoblarning o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan tarqoq (dispersiv) bo'lganini ifodalaydi. Likert bo'yicha 7 darajali shkalada

1.0 dan past standart og‘ish respondentlarning ko‘pchiligi bir xil javob variantini tanlaganini, ya’ni respondentlarning mazkur savol bo‘yicha qarashlari bir-biriga juda yaqin ekanligini, 1.0 va 2.0 oralig‘idagi standart og‘ish qoniqarli, o‘rtacha darajadagi farqlanish borligini va javoblar xaddan ziyod dispersiv (tarqoq) emasligini anglatadi. Standart og‘ishning 2.0 dan yuqori darajada bo‘lishi berilgan savol bo‘yicha respondentlarning javobi, qarashlari tarqoq ekanligini bildiradi [Cohen et al., 2002; Li et al., 2018].

Uchinchi qismda berilgan javoblarga ko‘ra doktorant, izlanuvchilar o‘z shaxsiy hayoti, xususan, oilaviy ahvoli, moliyaviy imkoniyatlari, sog‘ligi bilan bog‘liq muammolar, haqida ilmiy rahbari yoki maslahatchilarini xabardor qilishi kerak yoki kerak emasligi haqida yakdil fikrga ega emas ($SO=2,01$) (4-jadvalga qarang).

4-jadval.

Doktorant, izlanuvchilarning kutilmalari ($n=150$)

№	Savollar	Mean	Mode	SD
1.	Doktorant (tadqiqotchi-izlanuvchi) ilmiy rahbarni shaxsiy hayoti (masalan, oilaviy ahvoli, moliyaviy imkoniyatlari, sog‘ligi bilan bog‘liq muammolar va h.k.) dan xabardor qilishi kerak.	4,49	7	2,01
2.	Doktorant (tadqiqotchi-izlanuvchi) karyerasiga oid rejalarini ilmiy rahbari bilan o‘rtoqlashishi lozim.	4,83	7	1,89
3.	Doktorant (tadqiqotchi-izlanuvchi)ning ilmiy ish bilan shug‘ullanishiga to‘sqinlik qilayotgan (yoki qilishi mumkin bo‘lgan) hayotidagi shaxsiy muammolarini ilmiy rahbari bilan o‘rtoqlashishga imkoni bo‘lishi kerak.	4,69	7	1,91
4.	Ilmiy rahbar doktorant (tadqiqotchi-izlanuvchi)ga turli stressli vaziyatlardan chiqib keta olish, ish va hayot o‘rtasidagi sog‘lom muvozanatga erishish yo‘llari va strategiyalarini qo‘llash bo‘yicha ham ustozlik qila olishi yoki namuna bo‘la olishi lozim.	5,37	7	1,79
5.	Ilmiy rahbar doktorant (tadqiqotchi-izlanuvchi)ga kafedra yoki bo‘limdagi muhit, shaxslararo murakkab munosabatlar yoki ehtimoliy konfliktlardan xabardor bo‘lishiga yordam berishi lozim.	5,37	7	1,79
6.	Ilmiy ish bilan shug‘ullanish davomida doktorant (tadqiqotchi-izlanuvchi) ilmiy rahbaridan ruhiy -emotsional qo‘llab-quvvatlov olib turishi kerak.	5,51	7	1,60
7.	Doktoranturada tahsil olishimdan qoniqishim birinchi navbatda ilmiy rahbarim bilan o‘zaro munosabatinga bog‘liq.	4,95	7	1,80

Huddi shunga o‘xshash natijani 4-jadval 3-savol natijalarida ham ko‘rish mumkin. Ya’ni doktorant, izlanuvchilar ilmiy ish bilan shug‘ullanishiga to‘sqinlik qilayotgan hayotidagi shaxsiy muammolarini ilmiy rahbari bilan o‘rtoqlashish kerak yoki kerak emasligi borasida ham deyarli tarqoq qarashlarga ega ($SO=1,91$).

5-jadval.

Ilmiy rahbar, maslahatchilarning kutilmalari ($n=21$)

№	Savollar	O‘rtacha qiymat	Moda	SO
---	----------	-----------------	------	----

1.	Ilmiy rahbar doktorantning (tadqiqotchi-izlanuvchining) shaxsiy hayotidan (masalan, oilaviy ahvoli, moliyaviy imkoniyatlari, sogʻligi bilan bogʻliq muammolar va h.k.) xabardor boʻlishi kerak.	4,67	5	1,93
2.	Ilmiy rahbar doktorantning (tadqiqotchi-izlanuvchining) karyerasiga oid rejalari bilan qiziqishi lozim.	4,90	5	1,67
3.	Doktorantning (tadqiqotchi-izlanuvchining) ilmiy ish bilan shugʻullanishga toʻsqinlik qilayotgan (yoki qilishi mumkin boʻlgan) hayotidagi shaxsiy muammolarini ilmiy rahbari bilan muhokama qilishga imkoni boʻlishi kerak.	4,81	6	1,75
4.	Ilmiy rahbar doktorantga (tadqiqotchi-izlanuvchiga) turli stressli vaziyatlardan chiqa olish, ish va hayot oʻrtasidagi sogʻlom muvozanatga erishish yoʻllari va strategiyalarini qoʻllash boʻyicha ham yordamlashishi yoki namuna koʻrsata bilishi lozim.	5,62	6	1,28
5.	Ilmiy rahbar doktorantga (tadqiqotchi-izlanuvchiga) kafedra yoki boʻlimdagi muhit, shaxslararo murakkab munosabatlar yoki ehtimoliy konfliktlardan xabardor boʻlishiga yordam berishi lozim.	5	6	1,67
6.	Ilmiy ish bilan shugʻullanish davomida ilmiy rahbar doktorantni (tadqiqotchi-izlanuvchini) ruhiy-emotsional qoʻllab quvvatlashi lozim.	5,90	6	0,89

Demak, mazkur soʻrovnomaga orqali olingan javoblardan xulosa qilish mumkinki, respondentlar doktoranturadagi faoliyatlari davomida asabiylashish, aqliy zoʻriqish, motivatsiya susayishi kabi muammolarga tez-tez duch kelishadi va odatda ilmiy rahbarlari bu borada doktorantlarga yetarlicha koʻmak bera olmaydi. K.Levak boshchiligidagi olimlarning [Levecque et al., 2017] ilmiy tadqiqotlarida aniqlashlaricha, doktoranturada tahsil oluvchi shaxslarning emotsional stabiligini taʼminlashda ilmiy rahbarlar katta rol oʻynaydi. Tadqiqotda keltirilishicha, oʻz muammo va qiyinchiliklari bilan ilmiy rahbari bilan oʻrtoqlasha oladigan, ilmiy rahbarlari bilan konstruktiv oʻzaro hurmat asosida qurilgan munosabatga ega doktorantlar bunday munosabatga ega boʻlmagan doktorantlarga qaraganda kamroq asabiylashish, motivatsiya bilan bogʻliq muammolarga duch kelishadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Oliy taʼlimdan keyingi taʼlimda tahsil olish yuqori darajadagi akademik tadqiqotchilik koʻnikmalarini egallashni nazarda tutadi. Ilmiy tadqiqot bilan shugʻullanish, turli sinovlardan oʻtish, dissertatsiya ishini himoya qilish jarayoni doktorant izlanuvining turli hissiy kechinmalarni, ruhiy tushkunlik va gʻalaba hisini tuyish bilan kechadi. Doktorantura bosqichida tahsil olib, ilmiy faoliyat yurituvchilarning aksar qismini, tadqiqot natijalari koʻrsatib turganidek, katta yoshli, oʻz mustaqil shaxsiy hayotini boshlagan, bir yoki bir necha nafar farzandni voyaga yetkazayotgan shaxslar tashkil qilishiga qaramay, oliy taʼlimdan keyingi taʼlimda mashgʻul boʻlgan bu shaxslar ham oʻziga yarasha muammo va qiyinchiliklarni boshdan kechirishadi. Bu muammolar va qiyinchiliklarni matonat bilan yengib oʻtish boʻlsa, adabiyotlar sharhidan maʼlum boʻlishicha, koʻp hollarda doktoranturadagi

ta'limning ilk kunlaridanoq ilmiy rahbar va doktorant o'rtasida, o'zaro hurmat, ishonchga qurilgan konstruktiv professional, ustoz-shogird munosabatiga bog'liq bo'ladi. Doktorantura ta'limida uchrovchi moliyaviy qiyinchiliklar bo'lsa doktorantlar faoliyatiga ba'zan salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday vaziyatlarda doktorant, izlanuvchilarning ilmiy rahbarlaridan qo'llab-quvvatlov olishi va qiyinchiliklarni yengib o'tishi tanlangan soha bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi. Mazkur tadqiqotda qo'lga kiritilgan natijalar, ularning tahlil va talqini asosida quyidagilar tavsiya etiladi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limda izlanuvchi sifatida faoliyat yurituvchi shaxslarga:

- ish bilan shaxsiy hayot o'rtasidagi sog'lom muvozanatni saqlash bo'yicha qo'shimcha maslahatlar berish;

- tayanch doktorant va doktorantlar uchun emotsional intellekt bo'yicha tushuntirish ishlarini, trening yoki seminarlar tashkil qilish orqai ularga ruhiy-emotsional ko'makni tashkil qilish;

- ilmiy faoliyat davomida aqliy zo'riqishning oldini olishga qaratilgan strategiyalar va usullarni amalda qo'llash bo'yicha tavsiyalar berib borish;

- oliy ta'limda, xususan, magistratura bosqichida talabalarning akademik, ilmiy-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan fanlar sonini oshirish va mazmunan boyitish ishlarini olib borish lozim. Shuningdek, fan sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqot metodlariga bag'ishlangan fan (modul)lardagi, shuningdek, magistratura bosqichida olib borgan ilmiy tadqiqoti hamda uning natijalari asosida yozilgan dissertatsiyasiga qo'yilgan baho asosida oliy ta'limdan keyingi ta'limga o'qishga qabul qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim. Bu o'z navbatida izlanuvchilar uchun doktoranturada muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini, ilmiy tadqiqotlar sifatini yanada yaxshilashi mumkin.

Tayanch doktorant, doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik va maslahatchilikka biriktirilgan shaxslar uchun:

- o'z shogirdlari, ularga biriktirilgan izlanuvchilarni ruhiy qo'llab-quvvatlash yo'llari bo'yicha treninglar tashkil qilish hamda doktorantlarda uchrab turuvchi shaxsiy, psixologik muammolarni erta aniqlash yo'llari bo'yicha yoriqnomalar ishlab chiqish;

- izlanuvchi va ilmiy rahbarlarning bir birlaridan kutilmalarini oldindan aniqlab olish, shaxsiy chegaralarni, nimalarni muhokama qilish mumkin yoki mumkin emasligini, izlanuvchining ilmiy rahbar yoki maslahatchilariga qanday masalalar bo'yicha murojaat qilishi mumkin yoki mumkin emasligini ustoz-shogir munosabatlarning ilk kunlaridanoq aniqlashtirib olish maqsadga muvofiq.

Doktorantlar orasida uchrab turuvchi moliyaviy qiyinchiliklar masalasida bo'lsa doktoranturada tahsil oluvchi shaxslar uchun, ayniqsa boshqa viloyatlardan kelib doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlovchilar uchun turar joy masalasida moddiy yordam mexanizmlarini ishlab chiqish shu turdagi qiyinchiliklarni biroz bo'lsa-da yengillashtirgan bo'lar edi.

Mazkur tadqiqot ishi albatta o'ziga yarasha cheklovlardan ham xoli emas.

Birinchi navbatda, mazkur tadqiqot diagnostik xarakterga ega bo‘lib uning natijalariga asoslangan holda yakuniy xulosalar yasab bo‘lmaydi. Avvalambor, bu mazkur tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning soni 172 nafar ekanligi bilan, ikkinchidan, tadqiqotda faqat bitta tadqiqot metodi, ya’ni so‘rov usulidan foydalanilganligi bilan izohlanadi. Doktorant va izlanuvchilarning doktoranturada tahsil olishi va ilmiy tadqiqot ishi bilan shug‘ullanishlari davomida yuzaga keladigan muammolarning asl mohiyatini tadqiq qilish uchun yanada keng ko‘lamli so‘rovlar o‘tkazish, tadqiqotda sifat ko‘rsatkichli ma’lumotlarni to‘plashga qaratilgan suhbat usulidan foydalanish lozim bo‘ladi.

Mazkur tadqiqot natijalaridan anglashiladiki, kelgusi tadqiqotlarda bir nechta o‘rganish yo‘nalishlari mavjud. Jumladan, doktorant va tadqiqotchi izlanuvchilarning doktoranturada tahsil olishi davomida duch keluvchi qiyinchiliklarni jins, yosh hamda oilaviy ahvoli kesimlarida tahlil ishlarini olib borish mumkin bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, turli yosh, jins va oilaviy ahvoldagi shaxlar uchun mos ravishda ilmiy rahbarlik uslublarini kalibrovka qilish imkonini yaratib, barcha uchun doktoranturada tahsil olishning mazmunli va muvaffaqiyatli kechishini kafolatlashi mumkin. Shuningdek, kelgusi tadqiqotlarda shuningdek tadqiqot obyektlarini, ya’ni tayanch doktorant, doktorant va mustaqil izlanuvchilar orasida alohida so‘rov o‘tkazish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son Farmoni. (2023-yil 11-sentabr). “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VMQ-304-son qarori. (2017-yil 22-may). *Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. <https://lex.uz/docs/-3213410>.
3. Ali, A., Kohun, F., & Levy, Y. (2007). Dealing with social isolation to minimize doctoral attrition- a four stage framework. *International Journal of Doctoral Studies*, 2(1), 33–49.
4. Ampaw, F.D., & Jaeger, A.J. (2012). Completing the three stages of doctoral education: An event history analysis. *Research in Higher Education*, 53, 640–660.
5. Atkins, M., & Brown, G. (2002). Effective teaching in higher education. USA: Routledge.
6. Austin, A.E. (2002). Preparing the next generation of faculty: Graduate school as socialization to the academic career. *The Journal of Higher Education*, 73(1), 94–122.
7. Austin, A.E. (2011). Preparing doctoral students for promising careers in a changing context: Implications for supervision, institutional planning, and cross-institutional opportunities. In V.Kumar & A.Lee (Eds.), *Doctoral Education in International Context: Connecting local, regional and global perspectives* (pp. 1–18.). Serdang, Malaysia: Universiti Putra Malaysia Press.
8. Bolliger, D.U., & Halupa, C. (2012). Student perceptions of satisfaction and anxiety in an online doctoral program. *Distance Education*, 33(1), 81–98.
9. Bowen, W.G., Rudenstine, N.L. (2014). *In pursuit of the PhD*. USA: Princeton University Press.
10. Evans, T.M., Bira, L., Gastelum, J.B. (2018). Evidence for a mental health crisis in graduate education. *Nature Biotechnology*, 36(3), 282–284.
11. Gardner, S.K. (2010). Contrasting the socialization experiences of doctoral students in high-and low-completing departments: A qualitative analysis of disciplinary contexts at one institution. *The Journal of Higher Education*, 81(1), 61–81.
12. Grossmann, A., & Brembs, B. (2021). Current market rates for scholarly publishing

- services. *F1000Research*, 10, 20. <https://doi.org/10.12688/f1000research.27468.2>.
13. Gurr, G.M. (2001). Negotiating the “Rackety Bridge” – a dynamic model for aligning supervisory style with research student development. *Higher Education Research & Development*, 20(1), 81–92.
 14. Jairam, D., & Kahl Jr, D.H. (2012). Navigating the doctoral experience: The role of social support in successful degree completion. *International Journal of Doctoral Studies*, 7, 311–329.
 15. Cohen, L., Manion, L., & Morrison, K. (2002). *Research methods in education*. USA: Routledge.
 16. Cotterall, S. (2011). Doctoral students writing: Where’s the pedagogy?. *Teaching in Higher Education*, 16(4), 413–425.
 17. Cotterall, S. (2013). More than just a brain: Emotions and the doctoral experience. *Higher Education Research & Development*, 32(2), 174–187.
 18. Levecque, K., Anseel, F., De Beuckelaer, A. (2017). Work organization and mental health problems in PhD students. *Research Policy*, 46(4), 868–879.
 19. Li, W., Liping, P., & Khan, Q. (2018). *Research methods in education*. New Delhi: SAGE Publications.
 20. Lovitts, B. (2001). *Leaving the ivory tower: The causes and consequences of departure from doctoral study*. Lanham, UK: Rowman & Littlefield Publishers, Inc.
 21. Nettles, M.T., & Millett, C.M. (2006). *Three magic letters: Getting to Ph. D*. Baltimore, MD: The Johns Hopkins University Press.
 22. Neumann, R., & Rodwell, J. (2009). The ‘invisible’ part-time research students: a case study of satisfaction and completion. *Studies in Higher Education*, 34(1), 55–68.
 23. Pyhältö, K., Toom, A., Stubb, J., & Lonka, K. (2012). Challenges of becoming a scholar: A study of doctoral students’ problems and well-being. *International Scholarly Research Notices*, 2012, Article ID 934941, 1–12. <https://doi.org/10.5402/2012/934941>.
 24. Wao, H.O., & Onwuegbuzie, A.J. (2011). A mixed research investigation of factors related to time to the doctorate in education. *International Journal of Doctoral Studies*, 6, 115–134.
 25. Wright, T. (2003). Postgraduate research students: people in context?. *British Journal of Guidance and Counselling*, 31(2), 209–227.

REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-158. (2023, September 11). *About the “Uzbekistan — 2030” strategy*. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.
2. Decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. DCM-304. (2017, May 22). *On measures to further improve the post-higher education system*. <https://lex.uz/docs/-3213410>.
3. Ali, A., Kohun, F., & Levy, Y. (2007). Dealing with social isolation to minimize doctoral attrition- a four stage framework. *International Journal of Doctoral Studies*, 2(1), 33–49.
4. Ampaw, F.D., & Jaeger, A.J. (2012). Completing the three stages of doctoral education: An event history analysis. *Research in Higher Education*, 53, 640–660.
5. Atkins, M., & Brown, G. (2002). *Effective teaching in higher education*. USA: Routledge.
6. Austin, A.E. (2002). Preparing the next generation of faculty: Graduate school as socialization to the academic career. *The Journal of Higher Education*, 73(1), 94–122.
7. Austin, A.E. (2011). Preparing doctoral students for promising careers in a changing context: Implications for supervision, institutional planning, and cross-institutional opportunities. In V.Kumar & A.Lee (Eds.), *Doctoral Education in International Context: Connecting local, regional and global perspectives* (pp. 1–18.). Serdang, Malaysia: Universiti Putra Malaysia Press.
8. Bolliger, D.U., & Halupa, C. (2012). Student perceptions of satisfaction and anxiety in an online doctoral program. *Distance Education*, 33(1), 81–98.

9. Bowen, W.G., Rudenstine, N.L. (2014). *In pursuit of the PhD*. USA: Princeton University Press.
10. Cohen, L., Manion, L., & Morrison, K. (2002). *Research methods in education*. USA: Routledge.
11. Cotterall, S. (2011). Doctoral students writing: Where's the pedagogy?. *Teaching in Higher Education*, 16(4), 413–425.
12. Cotterall, S. (2013). More than just a brain: Emotions and the doctoral experience. *Higher Education Research & Development*, 32(2), 174–187.
13. Evans, T.M., Bira, L., Gastelum, J.B. (2018). Evidence for a mental health crisis in graduate education. *Nature Biotechnology*, 36(3), 282–284.
14. Gardner, S.K. (2010). Contrasting the socialization experiences of doctoral students in high-and low-completing departments: A qualitative analysis of disciplinary contexts at one institution. *The Journal of Higher Education*, 81(1), 61–81.
15. Grossmann, A., & Brembs, B. (2021). Current market rates for scholarly publishing services. *F1000Research*, 10, 20. <https://doi.org/10.12688/f1000research.27468.2>.
16. Gurr, G.M. (2001). Negotiating the “Rackety Bridge” – a dynamic model for aligning supervisory style with research student development. *Higher Education Research & Development*, 20(1), 81–92.
17. Jairam, D., & Kahl Jr, D.H. (2012). Navigating the doctoral experience: The role of social support in successful degree completion. *International Journal of Doctoral Studies*, 7, 311–329.
18. Levecque, K., Anseel, F., De Beuckelaer, A. (2017). Work organization and mental health problems in PhD students. *Research Policy*, 46(4), 868–879.
19. Li, W., Liping, P., & Khan, Q. (2018). *Research methods in education*. New Delhi: SAGE Publications.
20. Lovitts, B. (2001). *Leaving the ivory tower: The causes and consequences of departure from doctoral study*. Lanham, UK: Rowman & Littlefield Publishers, Inc.
21. Nettles, M.T., & Millett, C.M. (2006). *Three magic letters: Getting to Ph. D*. Baltimore, MD: The Johns Hopkins University Press.
22. Neumann, R., & Rodwell, J. (2009). The ‘invisible’ part-time research students: a case study of satisfaction and completion. *Studies in Higher Education*, 34(1), 55–68.
23. Pyhältö, K., Toom, A., Stubb, J., & Lonka, K. (2012). Challenges of becoming a scholar: A study of doctoral students’ problems and well-being. *International Scholarly Research Notices*, 2012, Article ID 934941, 1–12. <https://doi.org/10.5402/2012/934941>.
24. Wao, H.O., & Onwuegbuzie, A.J. (2011). A mixed research investigation of factors related to time to the doctorate in education. *International Journal of Doctoral Studies*, 6, 115–134.
25. Wright, T. (2003). Postgraduate research students: people in context?. *British Journal of Guidance and Counselling*, 31(2), 209–227.